

SEMANTIC DEVELOPMENT IN NOUN LEXEMES

Alisher O‘razov

Teacher

Department of the Uzbek Linguistics

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

E-mail: orazovalisher96@gmail.com

ORCID: 0009-0006-3924-4231

Abstract. This article focuses on problems of Uzbek linguistics, in particular on the issues of semantic narrowing and semantic broadening in lexemes, with special attention to the semantic development of noun lexemes. The purpose of the study is to investigate the specific features of semantic narrowing and broadening, as well as the semantic development of noun lexemes, on the basis of the analysis of noun lexemes. The following methods of scientific analysis were used in the study: linguistic description, systemic, stylistic, and contextual analysis. The method of linguistic analysis was applied in examining the scientific literature related to the research topic. Stylistic analysis was widely used in studying the representation of noun lexemes in literary works. Noun lexemes served as the illustrative material of the article.

Keywords: lexeme, seme, derived meaning, figurative meaning, semantic genealogy, semantic narrowing, semantic broadening, metaphor, metonymy.

OT LEKSEMALARDA MA’NO TARAQQIYOTI

Alisher O‘razov

O‘qituvchi

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

Guliston davlat universiteti

Guliston, O‘zbekiston

E-mail: orazovalisher96@gmail.com

ORCID: 0009-0006-3924-4231

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, leksemalarida ma’no torayishi va kengayishi, xususan ot leksemalarda ma’no taraqqiyoti masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi ot leksemalarni tahlil qilish asosida ma’no torayishi va kengayishi, ot leksemalarda ma’no taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan: lingvistik tavsiflash, sistem, stilistik, kontekstual tahlil usullari. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil usulidan foydalanilgan. Stilistik tahlilda badiiy asarlarda ot leksemalarining aks etish xususiyatlarini o‘rganishda keng foydalanilgan. Ot leksemalar maqolaning illyustirativ materiali sifatida xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: leksema, sema, hosila ma’no, ko‘chma ma’no, semantik shajara, ma’no torayishi, ma’no kengayishi, metafora, metonimiya.

INTRODUCTION

So‘zlarning leksik ma’nolari taraqqiyotiga tilshunoslik nuqtayi nazardan e’tibor dastlab 1839-yil nemis tilshunosi Karl Rayzing tomonidan berilgan edi. U o‘zining lotin filologiyasiga bag‘ishlangan leksiyasida so‘z ma’nosini alohida

semasiologiya deb nomlagan fan tarmog'ida o'rganish kerakligini ilgari suradi. Bunda u ko'proq *leksik ma'no taraqqiyotini* nazarda tutgan edi¹.

So'zning semantik taraqqiyotini yuzaga keltiruvchi mantiqiy-semantik hodisalar asosan: 1) ifoda, ya'ni *ma'no kengayishi va torayishi*; 2) *hosila ma'no* yuzaga kelishi; 3) *evfemizm va disfemizm* kabi jarayonlardir².

Ma'lum bir so'z turkumidagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'no kategorial ma'nodir. Masalan, *uy, daraxt, suv, tosh, uyqu* so'zlari uchun umumiy bo'lgan predmetlik ma'nosi; *go'zal, achchiq, uzun, yorug', yashil* so'zlari uchun umumiy bo'lgan belgi ma'nosi; *kel, o'yna, yugur, o'rgan, chiniq* so'zlari uchun umumiy bo'lgan harakat ma'nosi kategorial ma'nolardir³. Demak borliqdagi buyum-narsa, voqea-hodisalarning nomlari ot so'z turkumining kategorial ma'nosi bo'ladi.

Bizning maqola ot leksemalarda ma'no taraqqiyoti bo'lganligi sababli shu masalaga e'tibor qaratamiz. Dastlab so'z ma'nosi haqida.

So'zning semantik tuzilishi so'zning leksik ma'no (ma'nolar), ma'no ottenkasi, qo'shimcha ottenkalaridan iborat tuzilishiga aytiladi. So'zning semantik tuzilishi *leksik ma'no, ma'no ottenkasi, qo'shimcha ottenka* kabilardan tashkil topadi.

Asos ma'no. 1. Biror ma'noning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qiladigan ma'no. Masalan, *o'yin* so'zining "ko'ngil ochish, dam olish maqsadidagi erkin (ermak) harakat" ma'nosi *o'yinga tushmoq, futbol o'yini* birikmalaridagi ma'nosining kelib chiqishiga asos bo'lgan ma'nodir. 2. Yasama so'zning asosiga (so'z yasali sh asosiga) oid ma'no. Mas., *terim* so'zining *ter, terimchi* so'zining *terim* qismiga oid ma'no. Ma'lum bir ma'no asosida yuzaga kelgan ma'no. Masalan, *a'zo* so'zining *partiya a'zosi* birikmasidagi ma'nosi *hosila ma'nodir*.

Bosh ma'no bu ko'p ma'noli birlik (so'z, ibora va b.) ma'nolari tizimida markaziy o'rinda turadigan, boshqa ma'nolar unga to'g'ridan-to'g'ri yoki biror ma'no orqali bog'lanadigan ma'no. Masalan, *ko'z* so'zining *odamning ko'zi, derazaning ko'zi, uzukning ko'zi* birikmalaridagi ma'nosi boshqa-boshqa (mustaqil) ma'nolar bo'lib, bulardan *odamning ko'zi* birikmasidagi ma'no, ya'ni "ko'rish a'zosi" ma'nosi bosh ma'nodir⁴. Keyingi ikki birikmadagi ma'nosi esa keyin yuzaga kelgan (keyin hosil bo'lgan) ma'nolardir.

Ot leksemalarning ma'no taraqqiyotida ot leksema (narsa-buyum, hodisa, tushuncha nomlarini bildiruvchi so'z)larning vaqt o'tishi bilan yangi ma'nolar hosil qilishi, eski ma'nolarining kengayishi, torayishi yoki o'zgarishi jarayoni tushuniladi. So'zlarning ma'no taraqqiyoti hodisasi tilshunoslikning *semasiologiya* bo'limida o'rganiladi.

Ma'no taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari quydagilardan iborat bo'ladi:

1. *Ma'noning kengayishi* – so'z dastlab tor ma'noda qo'llanib, keyinchalik kengroq tushunchani ifodalay boshlaydi. Masalan: "*non*" avval faqat ma'lum turdagi ozuqani bildirgan bo'lsa, hozirda umumiy oziq-ovqat tushunchasining ramzi sifatida ham ishlatiladi.

2. *Ma'noning torayishi* – so'z keng ma'nodan torroq, aniqroq ma'noga o'tadi. Masalan: "*mashina*" so'zi ilgari turli mexanik qurilmalarni bildirgan bo'lsa, hozir asosan avtomobilni anglatadi.

3. *Ko'chma ma'no (metafora va metonimiya)*. *Metafora* – o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi bo'lsa, *metonimiya* – yaqinlik (aloqadorlik) asosida ma'no ko'chishidir. So'zning ko'chma ma'no kasb etishi *metafora va metonimiya* orqali yuzaga keladi. Masalan: "*bosh*" – tana a'zosi (anatomik termin), rahbar ("*korxon boshi*").

4. *So'zning ijobiy va salbiy ma'no anglatishi*. *Melioratsiyada* ma'no yaxshilanadi. *Pejoratsiyada* ma'no salbiylashadi. Ayrim so'zlar vaqt o'tib hurmat yoki aksincha, salbiy ohang kasb etadi. Masalan, *xotin* leksemasi kabi. *Xotin* leksemasi o'tmishda (ayollarga berilgan) unvon nomi bo'lgan, hozirda esa umuman ayollarga nisbatan ishlatiladi.

5. *Polisemiya o'tish (ko'p ma'nolilik)*. Bir so'z bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarga ega bo'lib boradi. Masalan: "*ko'z*" – inson a'zosi, igna ko'zi, buloq ko'zi va boshqalar.

Ot leksemalarning ma'no taraqqiyoti tilning dinamikligini va doimiy o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar yangi ma'nolarni yuzaga keltiradi va mavjudlarini boyitadi.

Ot leksemalarda semantik shajara. Semantik shajara bu bir ot leksemaning asosiy (denotativ) ma'nosidan kelib chiqib, vaqt o'tishi bilan hosil bo'lgan barcha hosila va ko'chma ma'nolar tizimi tushuniladi, ya'ni asos ma'nodan o'sib chiqqan ma'nolardir. Semantik shajara semasiologiyaning asosiy tushunchalaridan hisoblanadi.

Semantik shajaraning mohiyatini quydagi holatlarda kuzatamiz. Har bir ot leksema odatda *bosh (asosiy) ma'nodan* boshlanadi. *Bosh ma'nodan hosila (ikkinchi darajali) ma'nolar* rivojlanadi. Keyin esa *ko'chma va ramziy ma'nolar* paydo bo'ladi. Bu jarayon *polisemiya* bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, "*Bosh*" so'zining semantik shajarasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u dastlab tananing yuqori qismi (anatomik termin) asosiy ma'nosi bo'lib, rahbar (*korxon boshlig'i*), boshlanish (*ishning boshi*) uning *hosila ma'nolari* hisoblanadi.

¹ Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – Москва: ИЛИЯ, 1959. – С.47.

² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: "Mumtoz so'z", 2010. – Б.6.

³ Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б.47.

⁴ Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б.18-23.

Eng muhim qism (*masalaning boshi*), yuqori nuqta (*tog' boshi*) kabilar bosh lemasining *ko'chma ma'nolaridir*. Bu yerda ma'nolar o'rtasidagi bog'lanish *metafora va metonimiya* orqali yuzaga kelgan. Va yana bir misol, ko'z so'zining semantik shajarasini ko'rib chiqamiz. Bosh ma'no ko'z (anatomik termin), ko'rish a'zosi. Igna ko'zi – hosila ma'no. Buloqning ko'zi (manba), nazorat (*ko'z-quloq bo'lish*) – ko'chma ma'no.

Semantik shajara so'z ma'nolarining qanday rivojlanganini ko'rsatadi, tilning tarixiy taraqqiyotini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga lug'at tuzishda va matn tahlilida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilish mumkinki, semantik shajara oddiygina ma'nolar ro'yxati emas, balki ular o'rtasidagi ichki bog'lanish va rivojlanish tizimi hisoblanar ekan. Har bir ot leksema o'ziga xos ma'no shajarasiga ega bo'lib, bu shajara tilning boyligi va dinamikligini hamda moslashuvchanligini o'zida aks ettiradi.

Biz quyida *yurak, qo'l, til* kabi ot leksemalar bo'yicha semantik shajarani ko'rib chiqamiz.

*Yurak*ning asos ma'nosi qon aylanishini ta'minlovchi tana a'zosi – anatomik termin. Ichki kechinmalar markazi (*yuragi siqildi*), ruhiy holat (ko'ngli ko'tarildi) hosila ma'nolaridir. Jasorat (*yurakli odam*), rahm-shafqat (*yuragi bor inson*), markaz (*shaharning yuragi*) ko'chma ma'nolari hisoblanadi. Bularning hosil bo'lishida ma'no kengayishi va metafora hodisasi asosiy rol o'ynaydi.

Qo'l – inson a'zosi, asosiy ma'nosi insonning ushlab, mehnat qilish a'zosi (anatomik termin). Yordam (*qo'l berish*), egalik / tasarruf (*uning qo'lida*) kabilar hosila ma'no. Kuch / imkoniyat (*qo'li yetadi*), hunar (*qo'li gul*), hokimiyat (*ish qo'lga o'tdi*) ko'chma ma'noda kelgan.

Tilning asos ma'nosi (anatomik termin) og'izdagi nutq a'zosi. Nutq, gapirish qobiliyati (*tili bor*), so'zlash usuli (*shirin til*) hosila ma'nolar. Milliy aloqa vositasi (*o'zbek tili*), ifoda vositasi (*san'at tili*), belgilar tizimi (*dasturlash tili*) ko'chma ma'noda qo'llangan. Bu yerda polisemiya hodisasi ham kuzatiladi.

Tahlil etilgan *yurak, qo'l, til* kabi ot leksemalar *asos ma'nodan* boshlanadi. So'ng esa ruhiy, ijtimoiy va mavhum tushunchalarga kengayib, semantik shajara hosil qiladi. Bu holat tilning tirik organizim ekanini va inson tafakkuri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Ot leksemalar tizimida ma'no kengayishi va torayishi. Ot leksemalar o'z taraqqiyoti jarayonida ikki turli, ya'ni umumiylikdan xususiylikka qarab borgan (ma'nosi toraygan) hamda xususiylikdan umumiylikka qarab borgan (ma'nosi kengaygan) leksemalarga bo'linishini kuzatish mumkin.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida ma'no hajmining kengayishi, leksik ma'noning avvalgisiga nisbatan kengroq voqelikni bildirishi *ma'no kengayishiga* olib keladi. Masalan, *o'q* eng avval kamoning o'qini bildirgan, hozirda esa har qanday quroldan otiladigan o'qni bildiradi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida leksema ma'nosi hajmi (ko'lami)ning torayishi; leksik ma'noning avvalgiga nisbatan torroq voqelikni bildirishi ma'no torayishiga sabab bo'ladi. Masalan, umuman hayvonlar ma'nosidagi *yilqi* so'zining hozirda faqat otni bildirishida ma'no torayish hodisasi yuz bergan⁵.

Yuqoridagi holatlarni ashyoviy dalillar asosida ko'rib chiqamiz. Masalan, *Tugma* leksemasining vazifadoshlik asosida hosil bo'lgan ma'nosi xususida shuni aytish mumkinki, bu so'z dastlab "*ko'ylakning yelka va ikki qismini bir-biriga tutashtirish uchun tikilgan ip*" ma'nosida paydo bo'lgan. Keyinchalik shu vazifani metall, qimmatbaho tosh, suyak va plastmassadan yasalgan maxsus qismlar bajargan. Tikuvchilik kasbi sohasiga tegishli ana shu "predmet" ham "tugma" nomi bilan ataladigan bo'ldi. Natijada bu so'zning yana boshqa tushuncha ifodasi uchun xoslangan yangi nominativ ma'nosi vujudga keldi.

Chiroq so'zi hosil qilgan yangi ma'nolar ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu so'z dastlab "tagdoniga yonilg'i quyib, maxsus yasalgan shisha yordamida yorug'lik taratadigan predmet, narsa" ma'nosi bilan paydo bo'lgan. Keyinchalik "*elektr quvvati vositasida yorug'lik taratadigan moslama*" ga nisbatan ham chiroq so'zi ishlatiladigan bo'ldi. "*Chiroq*" so'zining nominativ xarakterdagi ma'nosi ko'paydi, u polisemantik leksemaga aylandi.

Ulov so'zi va unda paydo bo'lgan yangi ma'nolar masalasi yana ham xarakterli. Bu so'z dastlab *ot, eshak, tuya, ho'kiz* singari ish hayvonlari va ularning naqliyot vositasi sifatida ishlatilishiga nisbatan qo'llangan. "*Ulov*" deganda o'shalar tushunilgan. Keyinchalik fan va texnikaning rivojlanishi tufayli, ularning vazifasi *velosiped, mototsikl, avtobus* va har xil yengil mashinalar, hatto poyezd va samolyotlar zimmasiga yuklandi. Endilikda "*ulov*" so'zining ma'nosi kengayib, polisemantiklikdan *lug'aviy-mazmuniy maydon* darajasiga yetgan. Ayni ana shu lisoniy xususiyatlar *qanot, in, o'q, qalam* va h.k. so'zlar hosil qilgan keyingi ma'nolar uchun ham xosdir⁶.

Tojik tili lug'aviy o'zlashmalarining ayrimlari o'zbek tilida ma'no torayishi, yoki ma'no o'zgarishiga uchragan. Masalan, tojik tilida *sovuq, salqin, yoqimsiz* ma'nolarida ishlatiluvchi *xunuk* so'zi o'zbek tilida "chiroyi yo'q", "ko'rimsiz" ma'nolarinigina bildirib, ma'no torayishiga uchragan.

⁵Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б.61-62.

⁶Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti fakultetlari bakalavriat talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, – 2021. – B.53.

Umumiylikdan xususiylikka qarab borgan sari ot leksemalarda ma'no torayishi bilan hodisaning ma'nosini aniq ifodalash kuchayib boradi.

Demak, ot leksemalar semantikasida o'zgarishlar umumiylikdan xususiylikka tomon yuz berganda – ma'no torayishi, xususiylidan umumiylikka tomon yuz berganda esa ma'no kengayishi yuz beradi. Xullas, davrlar o'tishi bilan ayrim leksemalar hodisaning ma'nosini aniq ifodalash zarurati bilan ma'no torayishiga uchraydi. Masalan, *xunuk, yilqi, yog'och (og'och)* kabi. Ma'noda torayish yuz bergan sari hodisa mohiyati aniqroq ifodalanadi. Ayrim ot leksemalar esa ma'no kengayishi bilan o'zining dastlabki, boshlang'ich ma'nosini yo'qota boshlaydi. Masalan, *tugma, chiroq, ulov, qanot, in, o'q, qalam* leksemalari kabi.

Ot leksemalar o'z taraqqiyoti jarayonida turli xil ma'no o'zgarishlarga uchraydi. Ot leksemalarida uchraydigan ma'no torayishi va ma'no kengayishi hodisalari ma'lum ma'noda shu turkum so'zlarining boyishi, barqarorlashuvi va tartibga solinishida alohida ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – Москва: ИЛИЯ, 1959. – С.47.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 605 с.
3. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti fakultetlari bakalavriat talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, – 2021. – 204 b.
4. Гак В.Г. Поле семантическое // Энциклопедический словарь юного филолога. – Москва: Педагогика, 1984. – 227 с.
5. Махмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. №4. – Б. 3.
6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: “Mumtoz so'z”, 2010. – 288 б.
7. Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. Учебное пособие. – Москва: Высшая школа, 1988. – 169 с.
8. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – Москва: Высшая школа, 1982. – 242 с.
9. Звегинцев В.А. Язык и лингвистическая теория. – Москва: МГУ, 1973. – 248 с.
10. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент 2002. – 164 б.

Reviewer:

Fazliddin G. Sharipov

DSc, Professor

Gulistan State University (Uzbekistan)